

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил 6-сон



	10.00.00	ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ PHILOLOGICAL SCIENCES	
48	Ошибки в письменной работе студентов Хамдам-зода Л		251
49	Sinxron tarjima san'atini egallash strategiyalari Abdullayeva G. G		257
50	Индивидуальные вариации в овладении вторым языком Бобокулова Г.Ш		263
51	Эртак ва унинг тарихига бир назар Имяминова Ш.С.....		267
52	Comparative research of english and Uzbek toponyms Ismatova N.M		270
53	Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida "Happiness" va "Baxt" kontseptining ifodalanishi Jumayeva O.I		275
54	Теория множественного интеллекта и изучение языка Каххорова Ш.Ш		279
55	Tetralogiyaning tadrijiy taraqqiyoti Qo'ziliyeva G.N		283
56	Инновационные методы обучения английскому языку для специальных целей Мирходжаева М.И		287
57	Oliy o'quv yurtlarida rusiyzabon talabalarga o'zbek tilini o'qitish muammolari Normatova Sh.U		291
58	Abdulla Oripovning "Haj daftari" she'riy turkumi haqida Fayzullayeva O.X		295
59	Feminist yozuvchilar asarlarida badiiy tasvir vositalarini qo'llanilishi xususida Abdullayeva N		299
60	Yetuk o'zbek adibi Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asari misolida tarixiy inversiya Naimova A.M		303
61	Тилшуносликда матн талқини Қозоқова Н.А		308
62	Обучение Английскому языку с помощью литературы Курбонова Ш.Х		312
63	Frazeologiyani o'rganish va inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahlili Saidova Z.X		316
64	Ўзбек тилида тарз ифода воситаларининг морфологик, синтактик, лексик ва услубий ифодаланиши Абдуллаев А		320



- 8.Lenore, K.L. 1993. *The Creative Classroom A Guide for Using Creative Drama in Classroom*. U.S.A.: Elsevier, Inc.
- 9.Maley, A. 1989. "Down from the Pedestal: Literature as Resource" in *Literature and the Learner: Methodological Approaches*. Cambridge: Modern English Publications.
- 10.Meng, H.I. 2002. "A Suggested Syllabus for the Drama Teaching Course in ELT Departments". Unpublished M.A Thesis. Ankara: Hacettepe University.
- Obediat, M. 1997. "Language vs. Literature in English Departments in the Arab World" in *English Teaching Forum*.
11. Saidova Z.Kh . Ispolzovanie novix texnologiy na urokax angliyskogo yazika . Molodoy ucheniy. — 2016. — № 7 (111). — p. 703-706.
12. Saidova Z.Kh . Questioning techniques in teaching english- Dostijeniya nauki I obrazovaniya, 2018, 64-65 s
13. Saidova Z. Kh. "The ways of improving English speaking skills". Global Congress of Contemporary Study A Multidisciplinary International Scientific Conference, November 7th, 2020,p 148-149.
14. The figure of Amir Temur in the literatures of Europe "International journal of psychological rehabilitation",Lomdon,UK,Volume24,Issue 3, p.416-422.
15. Khaydarova N.G., Ramazonov M. Psychological approach in teaching methods. //Достижения науки и образования.2017. 4 (17) .C.101-102.

**FRAZELOGIYANI O'RGANISH VA INSON RUHIY HOLATINI IFODALOVCHI
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI**

Saidova Zulfizar Xudoyberdiyevna

Buxoro davlat universiteti

Tillar o'qitish metodikasi fani o'qituvchisi

Tel:914451507 e-mail: zulfizar1984@list.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz, rus va o'zbek tillarida inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklarning chog'ishtirma masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Frazeologik birlik, obrazlilik,ekspressivlik, shakl va ma'no, lingvokulturologik, ruhiy holat, hissiyot, qobiliyat, ko'rish hissiyoti, eshitish hissiyoti, hidlash hissiyoti, sezgirlik, ta'm bilish hissiyoti, ochlik, chanqash hissiyoti, og'riqni sezish hissiyoti, charchash hissiyoti.

**ИЗУЧЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ И СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ
ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ОТРАЖАЮЩИХ ДУХОВНОЕ СОСТОЯНИЕ ЧЕЛОВЕКА**

Саидова Зулфизар Худойбердиевна

Бухарский государственный университет

Преподаватель по методике преподавания иностранных языков

Тел:914451507 e-mail: zulfizar1984@list.ru

Аннотация: В статье рассматривается сопоставительный анализ фразеологизмов отражающих духовное состояние человека.



Ключевые слова: Фразеологические единицы, образность, выразительность, форма и значение, лингвокультурологический, духовное состояние, эмоция, способность, зрение, слух, обоняние, чувствительность, чувство вкуса, голода, жажды, боли и чувство усталости.

THE STUDY OF PHRASEOLOGY AND COMPARATIVE ANALYSIS OF PHRASEOLOGISMS REFLECTING THE SPIRITUAL STATE OF HUMAN

Saidova Zulfizar Khudoyberdievna

Bukhara State University

Teacher of Methodology of teaching foreign languages

Phone number: 914451507 e-mail: zulfizar1984@list.ru

Annotation: The article deals with a comparative analysis of phraseological units reflecting the spiritual state of a person.

Key words: phraseological units, effectiveness, expressiveness, form and meaning, linguocultural, spiritual state, emotion, ability, sense of sight, hearing, smell, sensitivity, sense of taste, hunger, thirst, pain and sense of tiredness.

Jahon tilshunosligida xalqlarning tili, madaniyati, urf-odatlar, an'analari, tarixi, turmush tarzi, voqelikka munosabati, hamda milliy-ma'naviy o'ziga xosligining mushtarakligi va farqli jihatlarini frazeologik birliklar asosida o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ko'lami tilshunoslikning keying taraqqiyotida jadal rivojlanmoqda. Ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy ishlarda inson va til, til va madaniyat masalalarini borliqdagi manzarasi doirasida qiyosiy-chog'ishtirma, system-struktural paradigm asosida o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda.

Frazeologizmlar boshqa til birliklariga qaraganda nutqda obrazlilik, emotsional-ekspressivlikni ifodalashi bilan farqlanadi. Frazeologik birliklar tarkibidagi obrazlilik o'sha millat dunyoqarashining shakllanishida, uning ma'naviy, ijtimoiy, moddiy madaniyat darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun, frazeologik birliklar o'sha millatning milliy-madaniy saviyasi, an'analari, urf-odatlar haqida ma'lumot berish bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida til, inson va uning tafakkuri, dunyoqarashi bilan uzviy aloqa o'rnatilayotganligi sababli, frazeologik birliklar antroposentrik paradigmada tadqiq qilish zarurati paydo bo'lmoqda. Jahon tilshunosligida obrazli motivlashgan frazeologik birliklar talqini, ularning shakl va ma'no munosabati, lingvokulturologik vositalarini o'rganish hamda frazeologik birliklarning nutqda qo'llanilishini qiyosiy tahlil qilish, ularni leksik-semantik va grammatik jihatdan tasniflash singari qator yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tildagi frazeologik material asosida inson ruhiy ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik-struktur tasnifi, ularning morfologik tahlili hamda shunday turdagi frazeologik birliklarni leksik-semantik xususiyatlarini qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida chog'ishtirma tadqiqi amalga oshirilmagan.

Frazeologiyani o'zi nima?

Frazeologiya (grekcha phrasis- ibora, logos-tushuncha, ta'limot).

1. Tilshunoslikning frazeologik birliklarini o'rganuvchi bo'limi; 2. Tilning frazeologik birliklari majmuidir [1,105]. Frazeologik birliklar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash tarzi, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy



bog'liqdir. Frazeologik birliklar obrazlilik va ekspressivlikni yuzaga kelyiruvchi muhim vosita bo'lib, ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababdan frazeologik birliklarning uslubiyatda ham muhim o'рни mavjud. Frazeologiya sohasining nazariy asoslarini yaratishda Shveytsariyalik olim Sharl Ballining xizmatlari juda katta. Ingliz tilshunosligida frazeologik birliklar, ularning nazariy asoslari til hodisasi sifatida A.V.Kunin va N.N.Amosovalarning ilmiy tadqiqotlarida uchraydi. Rus tilshunosligida frazeologiyani o'rganishda B.F.Larin , M.T. Tagiyev, E.Polivanov, V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy, Yu.A. Gvozdev, E.A.Malinovskiy, V.L.Arhangelskaya, A.N.Fyodorov, V.N.Teliya, A.V.Verner, V.G.Gak kabi tilshunos olimlarning xizmatlari beqiyosdir.

Frazeologik birliklar va ularning shakllanish yo'llarining qiyosiy tahliliga L.L.Grigoryevna, N.F.Xomyakova, M.N.Grisko, I.V.Gorodeskaya, J.D.Kazimagamedovaning asarlari bag'ishlangan. [2,6]. O'zbek tilshunosligida esa F.Mamatov, A.Aynazarov, M.Umarxodjayev, Sh. Razmatullayev, B.Yo'ldoshev, M.Bafojeva, I.Rasulov, M.Hakimova, N.Nasrullayeva kabi olimlarning ilmiy ishlarida frazeologik birliklar , ularning funksional uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.[3,8-10]. Chog'ishtirma tilshunoslik nuqtai-nazaridan L.Xolmurodova, G.Qurbonova, M.Radjabova, R. Zaripovalarning ilmiy tadqiqotlari tadqiq qilingan.

Tilda mavjud frazeologik birliklarni quyidagi guruhlariga tasniflash mumkin: joy nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklar , inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklar, inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklar va hokazo. Ingliz va o'zbek tillarida inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklarning struktur morfologik hamda leksik-semantik jihatdan frazeologik birliklarning shakllanishi omillari bilan bog'liq muammolar tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Quyida inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologizmlarni uch tilda tahlilga tortamiz. Inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologizmlarning qator ideografik lug'atlarda yoritilishiga e'tibor qaratish lozim.[4,5]. Ideografik lug'atlarda berilgan inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklarni quyidagi guruhlariga tasniflash mumkin:

1. Ko'rish hissiyotini ifodalovchi frazeologik birliklar.

Ingliz tilida: *appear to smb; strike one's eyes*; rus tilida: *попа́даться на глаза; предста́ть перед глазами*; o'zbek tilida : *ko'zga tashlanmoq*. Ko'rish hissiyotini ifodalovchi frazeologik birliklar ushbu psixologik jarayonni intensivlik darajasini ko'rsatadi. Qisqa vaqtda ko'rish hissiyotini ifodalovchi frazeologik birliklarni ingliz, rus va o'zbek tillarida quyidagilar orqali berish mumkin: Ingliz tilida: *cast(dart, flash, shoot, throw) a glance at smb (smth); cast (pass, rem) one's (the) eye on smth*; rus tilida: *пробе́жать (пробе́жать) глазами, броса́ть(метну́ть) взгляд*; o'zbek tilida: *ko'z urishtirmoq, qisqa fursatda ko'zga tashlanmoq*.

Inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklar ko'rish hissiyotini ifodalovchi frazeologik birliklar bilan xarakterlanadi.

2. Eshitish hissiyotini ifodalovchi frazeologik birliklar ham insonning ruhiy holati bilan bog'liq bo'lib, ular ham turli ma'nolarda ishlatiladi. Ingliz tilida: *grate (jar) upon smb's (the) ears; fall on (upon) smb's ear; ring in one's ears*; rus tilida: *ухо (ушу) пекет(депек); в ушах стонет (звучит), ласкает слух*; o'zbek tilida: *qulog'iga lag'mon osmoq; qulog'ig tambur chertmoq*. Eshitish holatini ifodalovchi frazeologik birliklar inson tanasining bir qismi ya'ni "quloq" bilan bog'liq



holda shakllanganligini ko'ramiz. Ushbu frazeologik birliklar kishilarning og'zaki so'zlashuv nutqida ko'p uchraydi va tilning frazeologik qatlamini boyitadi.

3. Hidlash (hid bilish) hissiyotini ifodalovchi frazeologik birliklar rus tilidagi *"бросаться (ударять) в нос"*, o'zbek tilida esa *"burunga hidi urilmoq"* frazeologik birligi bilan beriladi, ammo ingliz tilida ushbu hissiyot bilan bog'liq frazeologik birliklar uchramaydi.

4. Sezgirlik hissiyotini ifodalovchi frazeologik birliklar har uchala tilda ham uchrashi bilan ham xarakterlanadi. Ushbu frazeologik birliklar sovuq qotmoq hissiyoti, boshqa harorat bilan bog'liq hissiyotlar bilan shakllanadi, shuningdek, ushbu hissiyot kuchli hayratlanish, qayg'urish, hayajonlanish natijasida sodir bo'ladi. Rus tilida: *зуб на зуб не попадает*; Ingliz tilida: *be chilled (frozen) to the marrow, get the shivers*; O'zbek tilida: tishini-tishiga qo'ydi, (sovuqdan) titramoq.

5. Ta'm bilish hissiyoti bilan bog'liq bog'liq frazeologik birliklar ham ingliz, rus va o'zbek tillarida uchraydi, ular biror narsani ta'mini bilish (sezish) bilan bog'liq frazeologik birliklar bo'lib, nutqda ko'p ishlatiladi. Ingliz tilida: *lick one's chops; one's mounth waters (after, at, for)*; rus tilida: *пальчики (пальцы) оближешь; слюнки текут*.

Yuqoridagi barcha frazeologik birliklar ushbu hissiyotda intensivlik yuqori ekanligi bilan xarakterlanadi.

6. Ochlik, chanqoqlik va to'yish hissiyotini ifodalovchi frazeologik birliklar:

Ingliz tilida: *feel empty, be full to the scuppers*; rus tilida: *зорло (или в горле) пересохло; под ложечкой сосет; живот подводит*; o'zbek tilida: *o'lguday och qolmoq; suvsizlikdan chanqamoq; qorni yorilguday (ovqat) yemoq*.

Yuqoridagi frazeologik birliklar har uchala tilda ham kuchli och qolish, chanqash va to'yib ovqatlanish kabi holatlar bilan bog'liq bo'lib, inson ruhiy holatini ko'rsatuvchi factor hisoblanadi.

7. Og'riqni sezish hissiyoti. Ushbu frazeologik birliklar inson ichki organlari tomoq, bosh og'rig'i bilan bog'liq birliklardir. Ingliz tilida: *get(have) butterflies in one's stomach; a lump in one's throat*; rus tilida: *клубок подступил к горлу; тяжелая голова*; o'zbek tilida: *boshi og'ir bo'lmoq; qorni og'rirmoq*.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'rish, eshitish, hid bilish, sezgirlik, ta'm bilish, sezgirlik, ta'm bilish, ochlik, chanqoqlik, og'riqni sezish, charchash hissiyotini ifodalovchi frazeologik birliklar tilda alohida guruhni tashkil etadi va ular bevosita inson tana organlarini ifodalovchi frazeologik birliklar shklida shakllanadi. Inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklar turli tillar doirasida tasniflash shuni ko'rsatadi, qiyoslanayotgan ingliz, rus va o'zbek tillarida ular turlicha ma'no kasb etadi.

Har qanday shakllangan frazeologik birliklar til egasi bo'lgan o'sha xalqning turmush tarzi, yashashi, urf-odatlar, kasbi, intilishi, ma'naviyati, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli ular tilda obrazlilik va ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: "O'qituvchi". 1985. – B.105.
2. Xolmurodova L. Ingliz va frnsuz tillaridgi obrazli va motivlashgan frazeologizmlarning tematik-ideografiktalqini. (Lingvomadaniyat aspect). Nomzodlik diss. ... avtoref. – T.: 2012. B. 6.